

tarkibidagi yasovchi -on qo'shimchasi xususida gapiramiz. Hozirgi o'zbek tilida ham faol qo'llanuvchi ravon, namoyon kabi so'zlar hozirgi o'zbek adabiy tilidagi kabi eski o'zbek tilida ham tarkiblarga ajratilmagani uchun ularni bu o'rinda tahlilga tortish maqsadga muvofiq emas.

Jonon so'zidagi -on nisbat ma'nosini anglatadi.¹ Demak, jonon aynan jonga tegishli degan ma'noni anglatadi. Mazkur qo'shimcha evoyutsiyasi xususida N.Komilov -mon (-monand)ning qisqargan shakli bo'lsa kerak, degan fikrni bayon qilgan.² Lekin buni aniq ko'rsatadigan lisoniy fakt yo'q. Yuqorida aytilganidek, eski o'zbek tilida -on shaklli bir necha qo'shimcha mavjud. Shuning uchun ularni bir-biridan farqlash lozim. Masalan, xiromon so'zidagi -on bilan jonon so'zidagi -on bir qo'shimchani o'zi emas. Shuningdek, turkiy -on shaklli qo'shimchalarning o'zi ham bir necha bo'lib, ular vazifasi, qo'llanish darajasi kabi jihatlari bilan bir-biridan keskin farqlanadi. Ayrimlari yuzasidan turkologlar bir-biridan farqli fikrlar bildirganlar. Masalan, o'g'lon so'zidagi -on ayrim manbalarda qadimgi turkiy ko'plik affiksi deyilsa, A.Rustamov uning yetuklik ma'nosini anglatuvchi qo'shimcha ekanligini bildirib, asosli mulohazani bayon qilgan.

Demak, eski o'zbek tili so'z yasash tizimini tahlil qilar ekanmiz, har qo'shimchani taraqiyoti, ma'no qirralariga alohida e'tibor qaratish lozim. Shu bilan har bir qo'shimcha doirasida ular vositasida hosil bo'lgan yasalmalar tahliliga e'tibor qaratish eski o'zbek tili so'z boyligini kengroq ko'zdan kechirish, ijodkorlarning badiiy mahorati baholash imkonini ham beradi.

OGAHIYNING O'ZLASHMA SO'ZLARDAN FOYDALANISH MAHORATI

✓ *D.Allaberganova (Lingvistika (o'zbek tili) mutaxassisligi 1-bosqich magistranti)*

Muhammadrizo Ogahiy o'z tarixiy asarlarida o'zlashma so'zlardan o'rinli foydalangani, ularni asar badiiyati, estetik ta'siriga xizmat qildirganini ayrim misollar orqali kuzatamiz.

Mard so'zi. "Mardu zan va piru javon ittifoq bila masof iliklarig'a tiyg' va tayoq olib, ...".³ Bu so'z umumeroniy so'zlardan biri hisoblanib, hozirgi paytda denonativ ma'noda "erkak", "er jinsiga mansub inson"

¹ Шамсиддин бин Халаф Табризий. Бурхони котеъ. Техрон, "Амири Кабир", с. 559.

² Комилов Н. Жон ва жонон можароси. Алишер Навоий. Ғазаллар. Шарҳлар. Т., "Камалак", 1991, 94-бет.

³ Мухаммадризо Огахий. "Жомеъ ул-воқеоти султоний" кўлэмаси.

ma'nosini anglatadi. Bu so'z pahlaviy tilida *mart*, "Avesto"da *martiya* shaklida ishlatilgan.¹ Ushbu so'z qadimgi fors tilida *martiya*, sanskritda *marta* shakllarida umuman, inson, bashar ma'nolarini bergan.² Tadqiqotlarda, ushbu so'z aslida "o'lmoq" ma'nosidagi *mar* o'zagidan hosil bo'lgani va bunda inson umri o'tkinchi ekani nazarda tutilgani qayd etiladi. Demak, bu so'z inson ma'nosini anglatgan birinchi so'z emas. Chunki inson tafakkuri bu tarzda fikrlash va nomlashga qadar ancha takomil bosqichni bosib o'tishi kerak bo'ladi. Mir Jaloliddin Kazzoziy hind-yevropa tillarining ko'pchiligida "inson" va "er jinsiga mansub inson" ma'nolarida bir so'z qo'llanishini qayd qiladi va fransuz, ispan, ingliz va nemis tillaridan *man*, *man*, *hombre*, *homme* so'zlarini misol keltiradi.³ Mumtoz adiblarimiz tilida, jumladan, ushbu asarda *xalq* ma'nosida jamlovchi ot sifatida keng qo'llanilgan *mardum* مردم so'zi ham *mard*ning "inson" ma'nosi asosida yasalgan bo'lib, pahlaviy tilida *martom* shaklida qo'llanilgan bu so'z Turfondan topilgan moniylikka oid matnlarda *mardohm* ko'rinishida bo'lgan. Tarixan bu so'z ikki tarkibiy qism *mard* va *tom* (*tohm*) – urug', avloddan tashkil topgan. Shu tariqa, dastlab, "inson" (aslida, *odamizod* kabi "inson bolasi") ma'nosida yakka ot sifatida shakllangan bu so'z keyinchalik "bashariyat", "xalq" ma'nolarida jamlovchi otga aylangan. Uning ayrim fors klassiklari tilida yakka ot sifatida ishlatilgani o'zining tarixiy asosiga ega. Masalan, Shayx Sa'diy "Guliston"da yozadi:

Sagi ashobi kahf ro'ze chand,

*Payi nekon giriftu mardum shud.*⁴

Tarjimasi: "Ashobi kahf iti bir necha kun yaxshilar etagini tutib, odamga aylandi".

Javon جوان so'zi "yosh" ma'nosida mumtoz adiblarimiz tilida seriste'mol bo'lgan. Bu so'z xuddi shu ma'noda "Avesto"da *yanan* shaklida qo'llanilgan.⁵ Uning jivon shaklida qo'llanilgan holatlari ham mavjud.⁶ Pahlaviy tilida *yawan* ko'rinishida bo'lgan bu so'z fransuz tilidagi *jeune*, inglizcha *young*, ispancha *joven*, nemischa *Jung* so'zlari bilan umumiy hisoblanadi.⁷ J – y fonetik hodisasini hisobga olgan holda bu qatorda

¹ Bartholomae Ch. Altiranisches Worterbuch. Strassburg, 1950, p. 1146.

² 1982 جلد ۴ ص ۱۲۸۶. شمس الدين محمد بن خلف تبریزی. برهان قاطع. با اهتمام دکتر محمد معین. تهران. امیر کبیر. ۱۳۸۶.

³ Номан бостон. С. 181.

⁴ Шайх Саъдий. Гулистон. С. 23.

⁵ Bartholomae Ch. Altiranisches Worterbuch. Strassburg, 1950, p. 1305.

⁶ 1033 جلد ۴ ص ۱۲۸۶. شمس الدين محمد بن خلف تبریزی. برهان قاطع. با اهتمام دکتر محمد معین. تهران. امیر کبیر. ۱۳۸۶.

⁷ Номан бостон. С. 215–216.

ruscha *юный* so'zini ham kiritish mumkin. Mumtoz adiblarimiz tilida yosh; yosh odam ma'nosidagi bu so'zni hozirgi o'zbek adabiy tilida juvon shaklida ma'no torayishiga uchrashi tabiiy holdir. *Javon* "er ko'rgan yosh ayol" ma'nosini kasb eta boshlagani eski o'zbek tili davridan boshlanganini biz tadqiq qilayotgan asar leksikasi ham ko'rsatadi:

Birov dastgir etti qiz-u javon,

Ango baxt yovarlik aylab ayon.

Pir [پير] so'zi hozirgi o'zbek adabiy tilida ma'no torayishiga uchrab, tasavvufiy-diniy mazmunda pir va ko'chma ma'noda "mohir", "o'z ishiga usta" kabi ma'nolarda ishlatilsa ham, "piru badavlat" birikmasida uning asl lug'aviy ma'nosi ko'zga tashlanadi. Qari ma'nosini anglatgan arabcha shayx شيخ so'zining ham diniy mazmun kasb etishi yuzaga kelgan ko'chma ma'noning nominatsiya tamoyilini aniqlashtiradi. Shuningdek, bu so'z *piyir* shaklida ota ma'nosini ham anglatganki,¹ bu holni turkiy *ota*, *buva*, forsiy *bobo* so'zlarining Hakim ota, Bag'dod buva, Bobo Tohir, Bobo Afzal kabi pir, tariqat piri kabi ma'nolarni anglatishiga qiyoslash mumkin. Asarda pir so'zining o'z lug'aviy ma'nosi (qari, mo'ysafid)da ishlatilishi kuzatiladi.

"Gumon" so'zining etimologik tavsifi asnosida qadimgi fors va pahlaviy tillaridagi "v" tovushi "g"ga o'tgan hollar bo'lganini kuzatdik. Ushbu fonetik hodisani *gunoh* so'zi talqinida ham ko'rishimiz mumkin. Ushbu so'z pahlaviy tilida "gunoh"; "buzg'unlik" ma'nolarida *vinās* shaklida ishlatilgan. Qadimgi forsiyda *vināsa* xuddi shu mazmunda bo'lib, sanskrit tilida *vināsa inqiroz*, *zavol* ma'nosini beradi.² Qadimgi fors va sanskrit tillaridagi ikkala ma'no o'rtasida mantiqiy aloqadorlik borligini aniqlash qiyin emas. Fors tilining tarixiy taraqqiyotida g – s fonetik hodisasi ko'p uchraydigan tovush o'zgarishlaridan sanaladi. Bundan tashqari, "gunoh" so'zi jonli eroniy tillardan baluj tilida *gunās* shaklida ishlatilishi shubhaga o'rin qoldirmaydi. Shu o'rinda rus tilidagi ayb ma'nosidagi "vina" so'zi pahlaviydagi *vinās*, qadimgi fors va sanskrit tillaridagi *vināsa* bilan umumiy manbaga egaligi ravshanlashadi.

Dudmon so'zi Ogahiyning tarixiy asarlarida asosan ikki xil ma'no-da – ijtimoiy-siyosiy va etnografik termin sifatida uchraydi. Lug'atlarda ushbu so'zning quyidagi ma'nolari qayd etilgan: 1. Xonadon, uy. 2. Qabila. 3. Sheroy yaqinidagi bir mavze nomi.³ "...qiyot *dudmoni* akobiri-

¹ شمس الدين محمد بن خلف تبریزی . برهان قاطع . با اهتمام دکتر محمد معین . تهران . امیر کبیر . ۱۳۸۶ . جلد ۴ : ص ۴۳۶

² Шамсуддин бин Халаф Табризий . Бурхоки қотъ . Техрон , "Амири кабир" , ۱۳۷۵ х.ш . Жилди 3 . с . ۱۸۳۶ .

³ شمس الدين محمد بن خلف تبریزی . برهان قاطع . با اهتمام دکتر محمد معین . تهران . امیر کبیر . ۱۳۸۶ . جلد ۲ : ص ۸۹۴

ning muntaxabi shijoatnishon Xudoyorbiykim,..." yoki "*manqit dudmonining* qoploni harbi Bekmonbiy". Tarixan ushbu soʻz ikki mustaqil soʻz birikuvidan tashkil topgan. Birinchi tarkibiy qism "tutun", "olov" maʼnosidagi *dud* soʻzi boʻlib, koʻchma maʼnoda "oʻchoq" mazmunini anglatadi. Ikkinchi qism esa pahlaviy tilida *mān*, qadimgi forsiyda *māniya*, avestoviyda *mān* shaklida boʻlib, "uy"; "manzil" mazmunlarini anglatgan soʻzdir. Hozirgi fors tilidagi "qolmoq", "oʻrnashmoq" maʼnosidagi *mondan* (hozirgi zamon feʼl negizi *-mon*) ham ushbu oʻzakdandir. Har ikkala tarkibni umumlashtirganda *dudmon* soʻzining lugʻaviy maʼnosi "oʻchoq oʻrnashgan joy"dir. Lugʻaviy jihatdan bunday mazmun anglatgan soʻzning "xonadon", "urugʻ" maʼnolarini kasb etishi tabiiydir. Chunki *oʻchoq* soʻzining majozan "oila", "uy" mazmunini anglatishi hozir ham koʻzga tashlanadi. Qolaversa, ajdodlar turmush tarzi, qadim eʼtiqodi ham buni tasdiqlaydi. Bundan tashqari, "oʻchoq" mazmunining "manzil" maʼnosiga oʻtishi Gʻarb xalqlari tillarida ham mavjud. Jumladan, fransuz tilidan koʻpgina dunyo tillariga oʻzlashgan *foye* soʻzi aslida "oʻchoq" maʼnosini anglatuvchi *foyer*dir.¹ Fors tilida *-mon* tarkibining yuqoridagi oʻrin-joy maʼnosini anglatgan soʻzlar ancha. Masalan, *sozi-mon* (tashkilot), *soxtimon* (imorat, bino).

Birinchi tarkibiy qism haqidagi mulohazalarimizni fors tilida *dud* soʻziga mansublikni anglatuvchi *-a* qoʻshimchasini qoʻshish orqali hosil qilingan, "uy", "xonadon", "chiroq dudi" maʼnolarini anglatuvchi *duda* soʻzining mavjudligi ham tasdiqlaydi. Eʼtiborli tomoni shundaki, koʻchma maʼnoda "martabali yoki ulugʻ odamning oʻgʻli" degan maʼnoni anglatar ekan.² Tahlillardan koʻrinadiki, *dud(i)mon* soʻzi metofofora yoʻli bilan dastlab etnografik mazmun kasb etgan boʻlsa, keyinchalik Sharq xalqlari siyosiy hayoti bilan bogʻliq ravishda "dinastiya" maʼnosini ham olgan. Hozirgi fors tilida bu soʻz: 1. Oila, urugʻ. 2. Shajara. 3. Dinastiya maʼnolarida ishlatiladi.³ "Uy" maʼnosidagi soʻzning "sulola", "shajara" mazmunlarini kasb etishini ruscha "dom" soʻzida ham koʻrishimiz mumkin.⁴ Ogahiy "Taʼviz ul-oshiqin" devoni debochasida "faqir abo anjadd Xorazm mamlakati sultonlarining davlatxoh umarosidin va oʻzbekiya tavoyifining yuz *dudmoni* umdalaridin mirobligʻ mansabi oliysigʻa mansub va sadrnishinlik martabai mutaoliysigʻa mansubdurmen",⁵ -deb yoz-

¹ Шербак А.М. Французско-русский и русско-французский словарь. М., "Русский язык", 1957, с. 140.

² شمس الدین محمد بن خلف تبریزی. برهان قاطع. با اهتمام دکتر محمد معین. تهران. امیر کبیر. ۱۳۸۶. جلد ۲. ص ۸۹۴.

³ Персидско-русский словарь. Том I. М., "Русский язык", 1983, с. 674.

⁴ Русско-узбекский словарь. Том I. Москва, "Русский язык", 1983, с. 265.

⁵ Таъвиз ул-ошикин. Тошбосма. Хива, 1905, 4-бет.

ganida *dudmon* soʻzini ham etnografik maʼnoda, Xiva xonligi davlat boshqaruvini nazarda tutgan holda ham siyosiy maʼnoda tushunish mumkin.

Keltirilgan misollar Ogahiyning tarixiy asarlarida oʻzlashmalardan foydalanish mahoratini bir qadar namoyon qila oladi.

К ВОПРОСУ О ЛЕКСИКЕ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ, ЗАИМСТВОВАННОЙ РУССКИМ ЯЗЫКОМ ЗА ПОСЛЕДНИЕ 20 ЛЕТ

✓ Ж.Рахимов (магистрант, 1-курс Лингвистика (рус.яз), УрГУ)

Новые слова вливались в русский язык из других языков в результате экономических, политических и культурных связей русского народа с другими народами, в результате внедрения в жизнь русского народа реалий, новых для России, но уже имеющих названия в других языках.

Самые первые заимствования из неславянских языков проникали в русский язык еще в VIII–XII вв. Из скандинавских языков (шведского, норвежского) пришли слова, связанные с морским промыслом, имена собственные. В официально-деловой речи Древней Руси употреблялись устаревшие теперь слова *вира*, *тиун*, *ябеда*, *клеймо*. Из финно-угорских языков заимствовали названия рыб, а также некоторые слова, связанные с жизнью северных народов.

Изрядное влияние на русский оказал французский язык. В конце XVIII – начале XIX вв. в светском обществе вообще считалось неприличным говорить по-русски. Галломания так захватила русское образованное общество, что иные дворяне знали французский язык лучше русского. Наследием этой эпохи являются слова *салон*, *лакей*, *авангард*, *капитан*, *генерал*, *лейтенант*, *рекрут*, *корнет*, *корпус* и многие другие. Привычное современному русскому уху словосочетание “*детский сад*” также является калькой с французского.

Через французский язык попали и некоторые итальянские слова: *барокко*, *карбонарий*, *кавалер*, *баррикада*, *кредит*, *карнавал*, *бандит*, *шарлатан* и др.

Из итальянского языка во все европейские языки, и в том числе и в русский, пришли музыкальные термины и “кофейная” лек-